



2022 yil « 17 » iyundagi  
«MAXSUSENERGOGAZ» Aksiyadorlik  
Jamiyati aksiyadorlarning yillik  
umumiy yig'ilishi tomonidan  
«TASDIQLANGAN»

**«MAXSUSENERGOGAZ»**  
AKSIYADORLIK JAMIYATI  
**USTAVI**  
(YANGI TAHRIRI)

## **1 – MODDA**

### **JAMIYATNING NOMI, MANZILI VA YURIDIK MAQOMI**

- 1.1. Jamiyatning nomi:
- O'zbekiston Respublikasi davlat tilida: «MAXSUSENERGOGAZ» Aksiyadorlik Jamiyati - «MAXSUSENERGOGAZ» AJ;
  - rus tilida: акционерное общество «MAXSUSENERGOGAZ» - АО «MAXSUSENERGOGAZ».
- 1.2. Jamiyatning pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, Tashkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 32-a uy, pochta indeksi 100007.
- 1.3. Elektron pochta manzili: [maxsusenergogaz@inbox.ru](mailto:maxsusenergogaz@inbox.ru), [office@maxsus.uz](mailto:office@maxsus.uz), [aomeginfo@maxsus.uz](mailto:aomeginfo@maxsus.uz); veb-sayti – [www.maxsus.uz](http://www.maxsus.uz).
- 1.4. «MAXSUSENERGOGAZ» aksiyadorlik jamiyati (quyida «Jamiyat» deb ataladi) O'zbekiston Respublikasi Davlat mulkini boshqarish davlat qo'mitasi Toshkent shahar boshqarmasining aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish to'g'risidagi 1995 yil 13 dekabr 321-k-PO-sonli farmoyishiga asosan «O'zixtisosenergogaz» ixtisoslashtirilgan boshkarmasidan tashkil kilingan.
- 1.5. Jamiyat o'z faoliyatini "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni hamda O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan qonun hujjatlari va mazkur Ustavga muvofiq olib boradi. Jamiyatning Ustavi jamiyatning ta'sis hujjati deb hisoblanadi.
- 1.6. Jamiyat yuridik shaxs bo'lib, u o'z mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka, shu jumladan o'zining ustav fondiga (ustav kapitaliga) berilgan mol-mulkka ega bo'ladi, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da'vogar va javobgar bo'lishi mumkin.
- 1.7. Jamiyat davlat ro'yxatidan o'tgan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Jamiyat cheklanmagan muddatga tuziladi.
- 1.8. Jamiyat davlat tilida to'liq o'zining firma nomi yozilgan hamda joylashgan joyi ko'rsatilgan dumaloq muhrga ega, shuningdek, jamiyat O'zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlarini ochishga haqlidir.
- 1.9. Jamiyat o'z nomi yozilgan shtampi va blankalariga, o'z timsoliga, shuningdek belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan tovar belgisiga hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlarning, ishlarning va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalariga ega.

## **2 – MODDA**

### **JAMIYATNING MAQSADI VA ASOSIY FAOLIYAT YO'NALISHLARI**

- 2.1. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida man etilmagan istalgan faoliyat turini amalga oshirish va foyda olish maqsadida tashkil etilgan.
- 2.2. Jamiyat quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradi:
- neftgaz soxasida va boshqa gaz iste'mol qiladigan korxonalarida, mulkchilik shaklidan qat'i nazar, nazorat qilish – o'lchash jihozlarni va avtomatika vositalarini, jihozlarni iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash bo'yicha issiqlik energetik, texnologik va boshqa jihozlarni ta'mirlash va ishga solish-sozlash bo'yicha kompleks ishlarni olib borish;
  - energiya auditini o'tkazish, energotejamkorlik potensialini baholash, zaruriy xarajatlar xajmini, chora-tadbirlarni o'tkazish muddatini va kutilayotgan natijalarni baholash uchun tegishli texnik iqtisodiy loyihalarni loyihalashtirish va tadqiq etish va tayyorlash;
  - zamonaviy energotejamkor uskunalar va texnologiyalarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish va joriy etish;
  - texnik loyihalash xujjatlarini ishlab chiqish;
  - sanoat inshootlarini va majmualarini qurish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chiqish, shu jumladan ularning muhandislik tarmoqlarini va tizimlarini loyihalashtirish;
  - yong'in o'chirish tizimlarini va yong'inga qarshi signalizasiyasini loyihalashtirish, montaj qilish, sozlash, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish;
  - par va suv isitgich kozonxona agregatlari, yordamchi uskunalar montaji, demontaji, kapital va joriy ta'miri va ularga texnik xizmat ko'rsatish;

- suvni kimyoviy tozalash qurilmalari va ion ayrboshlash qurilmalarida tartib-sozlash sinovlar qilish;
- qozonxona agregatlarini, GTP, NO'A va A va suvni kimyoviy tozalash qurilmalarini ishlatishida montaj, ta'mirlash, sozlash va avtomatika xavfsiz texnikaviy yordam ko'rsatish;
- gazni hisob qiluvchi elektron o'lchagichini montaj, demontaj, ta'mirlash, sozlash va texnik xizmat ko'rsatish;
- aerodinamik sinovlarini o'tkazish va ventilyasiya tizimlarini pasportlash;
- agregat avtomatika tizimlarini montaj, demontaj, ta'mirlash, sozlash va texnik xizmati;
- konlar orasidagi neft quvirlari, kondensat quvirlari, magistral gaz quvirlari uskunalari prinsipial texnologik chizmalarini yangilash va tuzish;
- bosim ostida ishlaydigan idishlarni tashxislash va payvandlangan choklarni ultratovush nazorat qilish;
- idishlarni, gaz quvirlar va texnologik uskunalarni ultratovush bilan qalinligini o'lchash;
- quvurlar ichki qismini tashhis qilish (QIT);
- suyuqlik yoki gaz saqlanadigan katta idishlarni va sosudlarni pasportlash;
- vibrasiyali diagnostika, dinamik balansirovka va vixretokli defektoskopiya ishlari;
- sig'imni aniq bir o'lchovga keltirish (tarirovka) qilish;
- avtotransport vositalariga kuzatish va GPS tizimlarini o'rnatish va sozlash;
- kompleks videonazorat tizimlarini loyihalashtirish, ishlab chiqarish, ishga tushirish, o'rnatish, sozlash, ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish;
- gaz ballonlarini oressovka qilish va guvoxnoma berish;
- avtotransport vositalariga siqilgan va suyultirilgan tabiiy gaz uskunalarini o'rnatish;
- mukobil energiya mabalarini (kuesh panellar, kuesh suv isitgich tizimlar) o'rnatish va sozlash;
- avtomobil gaz quyiladigan stansiyalar (AGQS) va avtomobil gazni to'ldirish kompressor stansiyalar (AGTKS) ishga tushishga tayyor xolda qurish;
- avtomobil shinalariga ikkilamchi (kayta) ishlov berish;
- oltingugurt sotib olish, qayta ishlash, qadoqlash va sotish, shu jumladan eksport qilish;
- suv isitgich qozonlari issiqlik quvvati 4,0 MVt gacha, par qozonlari bosimi 1,4 MPagacha va par ishlab chiqarilishi soatiga 1,0 tn gacha, xar xil texnologik yoqilg'i-yondiruvchi kurilmalar ishlab chiqarilishi va tayyorlanishi;
- turli xildagi energetexnologik uskunalarini sozlash va ta'mirlash, montaj ishlarini olib borish;
- kompressor va turbokompressor agregatlari, gazgenerator agregatlari, xavo kompressor agregatlari, magistral gaz quvurining ponasimon surilma kopkoqlari, xavoni sovutgich moslamalari va barcha turdagi kranlar va shular kabi barcha uskunalarini o'rnatish, ta'mirlash, sozlash va texnik xizmat ko'rsatish ishlarini bajarish;
- materiallar va fittinglarni ta'mirlash va qayta ishlash;
- Respublika ob'ektlarida binolar qurish, xamda yuqori, o'rta va past bosim magistral gaz quvurlari, texnologik inshootlarini etqizish va ta'mirlash vaqtida qurilish va yig'ish ishlari sifatini texnik nazorat qilish, payvand choklarini va izolyasiya ishlarning sifatini nazorat qilish, gazoanalitik ishlari;
- elektrojihozlarni, elektrokimyohimoya vositalari, havo ventilyasiya va kondisionerlash tizimlarini montaj, ta'mirlash va ishga solish-sozlash ishlarini bajarish va ularni profilaktik sinovlardan o'tkazish;
- himoyalovchi chuqur anodli erga ulangan simlarni montaj qilish va o'rnatish va ularni mukammal ta'mirlash;
- qozonxonalar va sanoat pechlarini, suvni kimyoviy tozalash qurilmalari va gaz jihozlarini ta'mirlash-sozlash ishlarini bajarish;
- aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish va xalq iste'mol mollarini ishlab chiqarish;
- Polilen korroziyaga (yemirilmaslikka) karshi izolyasion plyonkasini ishlab chikariish;
- tirgakli armaturalar va gaz hisoblagichlarini ishlab chiqarish, ta'mirlash va sotish;

- avtotransport va maxsus texnika uchun yoqilg'i sarf qilish vaqtinchalik me'yorlarini ishlab chiqish;
- horijiy va mahalliy jihozlar va texnikasiga servis xizmatlari ko'rsatish;
- yuk va yo'lovchilarga avtotransport xizmatlarini ko'rsatish;
- tashki-iqtisodiy faoliyat;
- ulgurji savdo;
- chakana savdo;
- moliyaviy va mulkiy lizing;
- binolarni, xonalarni, asbob-uskunalarni va mol-mulkni ijaraga berish;
- past, o'rta va yuqori bosimdagi er osti va er usti gaz quvurlarini ta'mirlash va montaj qilish;
- qozonxonalarni ijaraga olib bug' ishlab chiqarish xizmatlarini amalga oshirish;
- bosimi 39 kgs/sm<sup>2</sup>gacha ega bo'lgan bug' qozonlari, issiqligi 115° S dan ortiq bo'lgan isitgich qozonlari, bosim ostida ishlaydigan hajmlar va III-IV toifali bug' va issiq suv quvurlarini yig'ish bo'yicha ishlarni bajarish;
- Loyihalar Boshqaruvi bo'yicha xizmatlar (Project Management Consulting – PMC);
- sanoatni qayta qurish va modernizasiya qilish bo'yicha investisiya loyihalarini ishlab chikish va qo'llab-quvvatlash, shu jumladan o'lchov vositalarini va texnologik jarayonlarini nazorat qilish tizimlarini ishlab chiqarishni o'zlashtirish;
- gaz quvurlarini katodik muhofazasi tizimi va tashqi qoplamasini tekshirish, aloqasiz magnetometrik tashxis (AMT) usuli bilan er ustini tekshirish, elektrometrik tekshiruvini o'tkazish, shuningdek, gaz quvurlarining texnik holatini rejalashtirish va kompleks baholash;
- burg'ilash ishlarida supervayzing;
- ishlatish (ekspluatasion) va geologik qidiruv neft-gaz quduqlarini burg'ulash;
- neft-gaz quduqlarini kapital va joriy ta'mirlash;
- nasos va kompressor uskunalarni ta'mirlash;
- gaz turbinasi va gaz porshenli dvigatellarini ta'mirlash;
- ishlab chiqarish ob'ektlarida (kompressor stansiyalari, qozonxonalar, nasos stansiyalari va boshqalar) va texnologiyalarda kompleks xizmat ko'rsatish;
- yong'inga qarshi uskunalarni ishlab chiqarish;
- elektr energiyasini ishlab chiqarish;
- gaz kondensati konlarini o'zlashtirish uchun ob'ektlarni loyihalashtirish, moddiy-texnika ta'minotini qilish, qurish va ishga tushirishini texnik qo'llab-quvvatlash va nazorat qilish;
- pilotsiz havo vositalari va texnologiyasidan foydalangan holda xizmatlar;
- analitik va bozor tadqiqoti (marketing);
- har qanday ob'ektlarni loyihalash, binolar va inshootlar qurish, eski ishlab chiqarish va ishlab chiqarish bo'lmagan binolarni modernizasiya qilish, qurilish va montaj ishlarini bajarish;
- yoqilg'i quyish avtostansiyalarini qurish uchun loyiha-smeta hujjatlarini ishlab chikish, shu jumladan ularning muhandislik tarmoqlarini va tizimlarini loyihalash;
- texnologik jarayonlarini boshqarishining avtomatlashtirilgan tizimlarini (TJBAT), sanoat elektrquvvat manbai tizimlarini loyihalashtirish, ishlab chiqarish, joriy etish va xizmat ko'rsatish;
- ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini boshqarish uchun dasturiy-axborot kompleks ishlab chiqish, joriy etish va olib borish;
- tezkor ishlab chiqarish faoliyatini hisoblash texnik va axborotlashtirishni tashkil etish vositalariga tizimli-texnik xizmat ko'rsatish;
- metrologik faoliyati bo'yicha texnik-metodik xizmat ko'rsatish;
- turli inshootlarida: sanoat va uy-joy qurilishi, uy-joy kommunal xo'jaligi (UJKX), yoqilg'i-energetika kompleksi (energetika va neftgaz) - izolyasiyalash uchun keng ishlatiladigan issiqlik izolyasiyalash materiallini (bo'yok) ishlab chiqarish;
- sayyohlik xizmatlari, shu jumladan: ichki, tashqariga va kirish turizmi;
- O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida taqiqlanmagan faoliyatning barcha turlari.

2.3. Maxsus ruxsatnoma (lisenziya)lar talab qilinadigan faoliyat turlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ruxsatnoma (lisenziya)lar berilganidan keyin amalga oshiriladi.

### **3 – MODDA**

#### **USTAV FONDI MIQDORI**

3.1. Jamiyatning Ustav fondi aksiyadorlar tomonidan sotib olingan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqarilgan hamma aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo'lishi shart.

3.2. Jamiyatning Ustav fondi uning kreditorlari manfaatlarini kafolatlaydigan jamiyat mol-mulkining eng kam miqdorini belgilaydi.

3.3. Jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari soni 3 680 (uch ming olti yuz sakson) dona aksiya.

3.4. Ustav fondining miqdori 605 280 000 (olti yuz besh million ikki yuz sakson ming) summi tashkil qilib, 151 320 (bir yuz ellik bir ming uch yuz yigirma) dona aksiyaga bo'lingan.

3.5. Bir dona aksiyaning nominal qiymati 4 000 (to'rt ming) so'mni tashkil qiladi.

### **4 – MODDA**

#### **JAMIYATNING USTAV FONDINI KO'PAYTIRISH VA KAMAYTIRISH TARTIBI**

##### **a) Jamiyat ustav fondini ko'paytirish**

4.1. Jamiyatning Ustav fondi qo'shimcha aksiyalar chiqarish va joylashtirish yo'li bilan ko'paytirilishi mumkin.

4.2. Qo'shimcha aksiyalar Jamiyatning ushbu Ustavida tasdiqlangan va e'lon qilingan aksiyalar miqdori doirasida joylashtirilishi mumkin.

4.3. Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish va ushbu Jamiyat Ustaviga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qarorlar Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi.

4.4. Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish to'g'risidagi qarorda joylashtirilishi kerak bolgan qo'shimcha oddiy aksiyalar soni, ularning joylashtirish muddati va shartlari belgilanishi kerak.

##### **b) Jamiyat ustav fondini kamaytirish**

4.5. Jamiyatning Ustav fondi aksiyalarning nominal qiymatini kamaytirish yoki ularning umumiy sonini qisqartirish, shu jumladan aksiyalarning bir qismini keyinchalik bekor qilish bilan jamiyat tomonidan sotib olish yo'li bilan kamaytirilishi mumkin.

4.6. Aksiyalarning bir qismini sotib olish va bekor qilish yo'li bilan Jamiyatning ustav fondini kamaytirishga aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining tegishli qarori bilan yo'l qo'yiladi.

4.7. Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish va Jamiyat Ustaviga tegishli o'zgartirishlar kiritish to'g'risida qarorlar aksiyadorlar Umumiy yig'ilishida qabul qilinadi.

4.8. Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilganda, aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi Ustav fondining kamaytirish sabablarini ko'rsatadi va kamaytirish tartibini belgilaydi.

### **5 – MODDA**

#### **CHIQRILADIGAN AKSIYALARNING TURLARI, ULARNING NOMINAL QIYMATI**

5.1. Jamiyat qimmatli qog'ozlarini muomalaga chiqarish, ro'yxatga olish, joylashtirish va xisob-kitob qilish tartibi amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga, mazkur Ustavga muvofiq belgilanadi.

5.2. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va o'z Ustaviga muvofiq korporativ obligatsiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni chiqarishga hamda joylashtirishga haqli.

5.3. Jamiyat oddiy egasi yozilgan xujjatsiz shakldagi umumiy qiymati 605 280,0 (olti yuz besh million ikki yuz sakson) ming so'mni tashkil etgan, xar birining nominal qiymati 4 000 (to'rt ming) so'm bo'lgan jami 151 320 (bir yuz ellik bir ming uch yuz yigirma) dona aksiyalarni chiqardi.

5.4. Egasi yozilgan aksiyalarni bir shaxsdan boshqa shaxsga o'tkazish qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

5.5. Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan, haqi pul mablag'lari bilan to'lanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda ovoz beruvchi aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar ularni imtiyozli olish huquqiga ega. Aksiyador, shu jumladan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida qarshi ovoz bergan yoxud unda ishtirok etmagan aksiyador aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni o'ziga tegishli shu turdagi aksiyalar miqdoriga mutanosib miqdorda imtiyozli olish huquqiga ega.

5.6. Jamiyatning aksiyalarini va boshqa qimmatli qog'ozlarini joylashtirish chog'ida ularga haq to'lash pul va boshqa to'lov vositalari, mol-mulk, shuningdek pulda ifodalanadigan bahoga ega bo'lgan huquqlar (shu jumladan, mulkiy huquqlar) orqali amalga oshiriladi.

5.7. Qimmatli qog'ozlarning nominal saqlovchilari Markaziy depozitariy va (yoki) investisiya vositachilaridir.

5.8. Aksiyalarni saqlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

5.9. Aksiyalarga bo'lgan huquqlar aksiyalarni oluvchiga uning depo hisobvarag'iga tegishli kirim yozuvi kiritilgan paytdan e'tiboran o'tadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda investisiya vositachisi va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi tomonidan beriladigan depo hisobvarag'idan ko'chirma bilan tasdiqlanadi.

5.10. Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish qimmatli qog'ozlar egalarining depo hisobvaraqlari holatiga ko'ra markaziy ro'yxatdan o'tkazuvchi vazifasini bajaruvchi Qimmatli qog'ozlarning Markaziy depozitariysi tomonidan amalga oshiriladi.

5.11. Jamiyat aksiyadorlarining reestriga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilishiga yo'l qo'yilmaydi, mazkur reestr shakllantirilgan sanada unga kiritilmay qolgan shaxslarning buzilgan huquqlari tiklangan yoki reestrni shakllantirishda yo'l qo'yilgan xatolar tuzatilgan hollar bundan mustasno.

5.12. Aksiyalarga ayirboshlanadigan qimmatli qog'ozlar Jamiyat tomonidan joylashtirilgan taqdirda e'lon qilingan aksiyalarning soni ushbu qimmatli qog'ozlarning muomalada bo'lishi muddati mobaynida ayirboshlash uchun zarur miqdordan kam bo'lmasligi lozim.

5.13. Jamiyat o'zi joylashtirgan qimmatli qog'ozlar ayirboshlanishi mumkin bo'lgan aksiyalar beradigan xuquqlarni cheklash xaqida ushbu qimmatli qog'ozlar egalarining roziligisiz qaror qabul qilishga xaqli emas.

5.14. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qaroriga muvofiq jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni yiriklashtirishga haqli bo'lib, buning natijasida jamiyatning ikki yoki undan ortiq aksiyasi xuddi shu turdagi bitta yangi aksiyaga ayirboshlanadi. Bunda jamiyat ustaviga uning joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

5.15. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyat joylashtirilgan aksiyalarni maydalashni amalga oshirishga haqli bo'lib, buning natijasida jamiyatning bir aksiyasi xuddi shu turdagi ikki yoki undan ortiq aksiyaga ayirboshlanadi. Bunda jamiyat ustaviga jamiyatning joylashtirilgan aksiyalarining nominal qiymatiga va soniga taalluqli tegishli o'zgartishlar kiritiladi.

## **6 – MODDA**

### **DAROMADNI (FOYDANI), DIVIDENDLARNI TAQSIMLASH VA ZARARLARNI QOPLASH TARTIBI**

6.1. Xojalik faoliyati natijasida Jamiyat tomonidan olingan foyda amaldagi qonun hujjatlariga muvofik soliq to'langanidan keyin Jamiyatning mulki bo'lib qoladi va amaldagi qonunchilik va ushbu Ustavga muvofik Jamiyatda fondlar (zaxira, mexnat muxofaza qilish fondi va boshqa fondlarni) yaratishga, aksiyalar buyicha dividendlarni to'lashga sarflanadi.

6.2. Dividendlar aksiyadorlarga jamiyatning ixtiyorida qoladigan sof foydasidan yoki o'tgan yilgi taqsimlanmagan foydasidan to'lanadi. Jamiyat aksiyalar bo'yicha e'lon qilingan dividendlarni to'lashi shart.

6.3. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga binoan dividendlar naqd pulda yoki boshqa qonuniy to'lov vositalarida yoki jamiyatning qimmatli qog'ozlarida to'lanishi mumkin. Dividendlar aksiyadorlar o'rtasida ularga tegishli aksiyalar soni va turiga mos ravishda taqsimlanadi.

6.4. Moliyaviy yil natijalariga ko'ra joylashtirilgan aksiyalar bo'yicha dividendlar bir yilda bir marta hisoblanadi va to'lanadi.

6.5. Dividendlarni to'lash to'g'risidagi qaror, dividend miqdori, har bir turdagi aksiyalar bo'yicha uni to'lash shakli va tartibi aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan jamiyat kuzatuv kengashining tavsiyasi, moliyaviy hisobotning ishonchliligi haqida auditorlik xulosasi asosida qabul qilinadi. Dividendlar miqdori jamiyatning kuzatuv kengashi tomonidan tavsiya etilgan miqdordan ko'p bo'lishi mumkin emas.

Jamiyat tomonidan oddiy aksiyalar bo'yicha hisoblangan dividendlarni to'lash aksiyadorlarning dividendlar olish bo'yicha teng huquqlaridan kelib chiqqan holda qaror qabul qilingan kundan boshlab 60 (oltmish) kunlik muddatdan kechiktirmay amalga oshiriladi.

6.6. Aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qarori bilan mulkdor yoki uning huquqiy vorisi yoki merosxo'ri tomonidan uch yil davomida talab qilinmagan dividendlar jamiyat ixtiyorida qoladi.

6.7. Jamiyat O'zbekiston Respublikasi norezident aksiyadorining yozma talabiga ko'ra unga hisoblangan dividendlarni erkin konvertatsiya qilinadigan valyutaga aylantirib, mablag'larni norezident aksiyador taqdim etgan bank hisobvarag'iga o'tkazib berishi shart.

6.8. Aksiyadorlarga dividendlarni to'lash to'g'risida qaror qabul qilingan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun shakllantirilgan jamiyat aksiyadorlarining reestrda qayd etilgan shaxslar aksiyalar bo'yicha dividend olish huquqiga ega.

6.9. Jamiyat aksiyalar bo'yicha dividendlar to'lash to'g'risida qaror qabul qilishga va to'lashga haqli emas:

- agar dividendlar to'lash paytida jamiyatda bankrotlik belgilari mavjud bo'lsa yoki dividendlarni to'lash natijasida ushbu belgilar jamiyatda paydo bo'lsa;

- agar jamiyat sof aktivlari qiymati uning ustav fondi va zaxira fondi miqdoridan kam bo'lsa.

Ushbu bandeda ko'rsatilgan holatlar tugatilgandan so'ng, jamiyat aksiyadorlarga hisoblangan dividendlarni to'lashi shart.

## **7 – MODDA**

### **ZAHIRA VA BOSHQA FONDLARNI TASHKIL ETISH TARTIBI**

7.1. Jamiyat tomonidan sof foyda hisobidan tashkil etiladi:

- zahira fondi;

- aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan belgilangan jamiyat faoliyati uchun zarur bo'lgan boshqa fondlar.

7.2. Jamiyatning zaxira fondi faqat qonunchilikda ruxsat etilgan maqsadlarga ishlatiladi.

7.3. Jamiyatning zahira fondi sof foydadan 5 % (besh foiz) miqdordagi har yilgi majburiy ajratmalar hisobiga shakllantiriladi, toki bu miqdor Jamiyatning Ustav fondida belgilangan 15 % (o'n besh foiz) dan kam bo'lmagan miqdorga etguniga qadar.

7.4. Zahira fondi qisman yoki to'la ishlatilgan bo'lsa, majburiy to'lovlar yangilanadi.

## **8 - MODDA**

### **AKSIYADORLARNING HUQUQ VA BURCHLARI**

8.1. Aksiyadorlar quyidagi huquqlarga egadirlar:

- tegishli jamiyat aksiyadorlarining reestriga kiritilish;

- o'zi haqida investisiya vositachisidagi va (yoki) Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysidagi depo hisobvarag'idan ko'chirmalar olish;

- jamiyat foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish;

- jamiyat tugatilgan taqdirda o'zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlarida ovoz berish orqali jamiyatni boshqarishda ishtirok etish;

- jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati natijalari to'g'risida to'liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

- olgan dividendini erkin tasarruf etish;

- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida, shuningdek sudda o'z huquqlarini himoya qilish;

- o'ziga etkazilgan zararining o'rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

- o'z manfaatlarini ifodalash va himoya qilish maqsadida uyushmalarga va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlariga birlashish;

- qimmatli qog'ozlarni olishda zarar ko'rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog'liq tavakkalchiliklarni sug'urta qilish huquqiga ega.

- boshqa qonun hujjatlari va jamiyat ustaviga muvofiq huquqlarga.

8.2. Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

8.3. Aksiyalarni boshqa shaxsga berishga doir cheklov belgilanishi aksiyadorni - mazkur aksiyalar egasini qonunchilikda belgilangan tartibda jamiyatni boshqarishda ishtirok etish va ular bo'yicha dividendlar olish huquqidan mahrum qilmaydi.

8.4. Oddiy aksiyalarning egalari bo'lgan aksiyadorlar qonunchilikga va Jamiyat Ustaviga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida mazkur yig'ilish vakolatiga kiradigan barcha masalalar bo'yicha ovoz berish huquqi bilan ishtirok etishi mumkin, shuningdek dividendlar olish, jamiyat tugatilgan taqdirda esa, o'zlariga tegishli ulushga muvofiq uning mol-mulkinging bir qismini olish huquqiga ega.

8.5. Aksiyador o'z ma'lumotlariga o'zgartirishlar kiritilganligi to'g'risida o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarni hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi Markaziy depozitariyni va (yoki) investisiya vositachisini vaqtida xabardor qilishi shart. Aksiyador o'ziga oid ma'lumotlar o'zgarganligi haqidagi axborotni taqdim etmagan hollarda, aksiyadorning o'z aksiyalariga bo'lgan huquqlarini hisobga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatuvchi Markaziy depozitariy va (yoki) investisiya vositachisi buning oqibatida aksiyadorga etkazilgan zarar uchun javobgar bo'lmaydi.

## **9 – MODDA**

### **AKSIYADORLARNING UMUMIY YIGILISHINING VAKOLATLARI, JAMIYAT BOSHQARUVINING TUZILISHI, IJROIYA VA NAZORAT ORGANLARNING SAYLASH TARTIBI**

Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi, kuzatuv kengashi va ijroiya organi jamiyatning boshqaruv organlaridir.

9.1. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi Jamiyatning yuqori boshqaruv organidir.

9.2. Jamiyat har yili aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishini o'tkazishi shart.

9.3. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini jamiyat kuzatuv kengashining raisi, u uzrli sabablarga ko'ra bo'lmagan taqdirda esa, jamiyat kuzatuv kengashining a'zolaridan biri olib boradi.

9.4. Aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishi jamiyat ustavida belgilangan muddatlarda, ammo moliya yili tugaganidan keyin olti oydan kechiktirmay o'tkaziladi. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishida jamiyatning kuzatuv kengashini va taftish komissiyasini saylash to'g'risidagi, jamiyatning boshqaruv a'zolari bilan tuzilgan shartnomaning muddatini uzaytirish, uni qayta tuzish yoki bekor qilish mumkinligi haqidagi masalalar hal etiladi, shuningdek Qonunchilikga muvofiq jamiyatning yillik hisoboti, jamiyat ijroiya organi va kuzatuv kengashining jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risidagi hisobotlari va boshqa hujjatlari ko'rib chiqiladi.

9.5. Aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishidan tashqari o'tkaziladigan umumiy yig'ilishlari navbatdan tashqari yig'ilishlardir.

9.6. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining kun tartibiga kiritilmagan masalalar bo'yicha qaror qabul qilish hamda kun tartibiga o'zgartirish kiritishga huquqiga ega emas.

9.7. Ovozga qo'yilgan masala bo'yicha aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qarori, agar Qonunda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalari egalari bo'lgan, yig'ilishda ishtirok etayotgan aksiyadorlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

9.8. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan, hal qilish chog'ida jamiyatning oddiy aksiyalari egalari bo'lgan aksiyadorlar ovoz berish huquqiga ega bo'ladigan masala yuzasidan ovozlarni sanab chiqish ovoz beruvchi aksiyalarning barchasi bo'yicha birgalikda amalga oshiriladi.

9.9. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi va tartibi, yig'ilish o'tkazilishi haqida aksiyadorlarga xabar berish tartibi, aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik vaqtida aksiyadorlarga beriladigan materiallarning (axborotning) ro'yxati jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

9.10. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyat Ustaviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki Jamiyat Ustavining yangi taxririni tasdiqlash;
- Jamiyatni qayta tashkil etish;



- Jamiyat faoliyatini tugatish, faoliyatni tugatish bo'yicha tugatuvchini tayinlash va oraliq hamda yakuniy tugatish balansini tasdiqlash;
  - Jamiyat Kuzatuv kengashi tarkibini aniqlash, uning a'zolarini saylash va ularning vakolatini muddatidan ilgari tugatish;
    - e'lon qilingan aksiyalarning eng ko'p miqdorini belgilash;
    - Jamiyatning Ustav fondini kamaytirish;
    - o'z aksiyalarini sotib olish;
    - Jamiyatning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;
    - Jamiyat taftish komissiyasining a'zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish, shuningdek taftish komissiyasi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash;
  - Jamiyatning yillik hisobotini, shuningdek Jamiyat faoliyatining asosiy yo'nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda jamiyatni o'rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;
    - Jamiyatning foydasi va zararlarini taqsimlash;
    - Jamiyat kuzatuv kengashining va taftish komissiyasining o'z vakolat doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan jamiyatni boshqarishga doir qonun hujjatlarida belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan jamiyat kuzatuv kengashining hisobotlarini va taftish komissiyasining xulosalarini eshitish;
    - Jamiyat tomonidan aksiyalarni va aksiyalarga ayirboshlanadigan emissiyaviy qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda, qonunchilikda belgilangandek, aksiyadorlar imtiyozli huquqni qo'llamaslik to'g'risida qarorni qabul qilish;
      - aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining reglamentini tasdiqlash;
      - aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;
      - balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig'ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to'g'risidagi qarorni qabul qilish. Jamiyat tomonidan mol-mulknini olish yoki uni boshqa shaxsga berish yoxud mol-mulknini boshqa shaxsga berish ehtimoli bilan bog'liq bitim (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) yoki o'zaro bog'langan bir nechta bitim, yirik bitim deb hisoblanadi, kundalik xo'jalik faoliyatini yuritish jarayonida tuziladigan bitimlar hamda aksiyalarni va boshqa qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan bog'liq bo'lgan bitimlar bundan mustasno.
    - agar jamiyat Kuzatuv kengashining ikki va undan ortiq a'zosi affillangan shaxs bo'lsa, bitim bo'yicha qarorni Qonunchilikda belgilangan tartibda va muddatlarda qabul qilish;
    - majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan maksimal miqdori va u bilan shartnoma tuzish (bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;
      - qonun hujjatlariga muvofiq boshqa masalalarni hal etish.
- 9.11. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar jamiyatning ijroiya organi hal qilishi uchun berilishi mumkin emas.
- 9.12. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar jamiyatning kuzatuv kengashi hal etishi uchun berilishi mumkin emas, quyidagilar bundan mustasno:
- Jamiyatning ustav fondini ko'paytirish, shuningdek jamiyat ustaviga jamiyatning ustav fondini ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartish va qo'shimchalar kiritish;
  - Qonunchilikga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (tashkil etilgan qimmatli qog'ozlar savdolariga chiqarish) narxini belgilash;
  - Jamiyatning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;
  - Jamiyatning ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensatsiyalar miqdorlarini belgilash;
  - Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash.
- 9.13. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishida ovozga qo'yilgan masalalar bo'yicha jamiyatning oddiy aksiyalarining egalari bo'lmish aksiyadorlar ovoz berish huquqiga egadir.

9.14. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan 3 (uch) ish kuni oldin shakllantirilgan Jamiyat aksiyadorlarining reestrda qayd etilgan aksiyadorlar ega bo'ladi.

9.15. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqi aksiyador tomonidan shaxsan yoki uning vakili orqali amalga oshiriladi. Aksiyador aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishidagi o'z vakilini istalgan vaqtda almashtirishga yoki yig'ilishda shaxsan o'zi ishtirok etishga haqlidir. Aksiyadorning vakili aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida vakil qilingan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlarni (ismi-sharifi yoki nomi, yashash joyi yoki joylashgan eri, pasportiga yoki identifikatsiyalovchi ID-kartasiga oid ma'lumotlar) o'z ichiga olgan yozma shaklda tuzilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi. Jismoniy shaxs nomidan berilgan ovoz berishga doir ishonchnoma notarial tartibda tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berishga doir ishonchnoma uning rahbarining imzosi va ushbu yuridik shaxsning muhri bilan tasdiqlangan holda beriladi.

9.16. Aksiyadorlarning umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabar aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida yigirma bir kundan kechiktirmay, lekin uzog'i bilan o'ttiz kun oldin Korporativ axborotning yagona portalida, jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi, shuningdek aksiyadorlarga elektron pochta orqali yuboriladi.

9.17. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi xabarda quyidagilar ko'rsatilishi kerak:

- Jamiyatning nomi, joylashgan eri (pochta manzili) va elektron pochta manzili;
- Umumiy yig'ilish o'tkaziladigan sana, vaqt va joy;
- Jamiyat aksiyadorlarining reestri shakllantiriladigan sana;
- Umumiy yig'ilish kun tartibiga kiritilgan masalalar;
- Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan aksiyadorlarni tanishtirish tartibi;
- aksiyadorlarning umumiy yig'ilishida, shu jumladan masofadan turib axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ishtirok etish va ovoz berish tartibi.

9.18. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborotga (materiallarga) Jamiyatning yillik hisoboti, Jamiyatning yillik moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan jamiyat taftish komissiyasining va auditorlik tashkilotining xulosasi, Jamiyatning kuzatuv kengashi hamda taftish komissiyasi a'zolariga nomzodlar to'g'risidagi ma'lumotlar, Jamiyatning Ustaviga kiritiladigan o'zgartish va qo'shimchalar loyihasi yoki Jamiyatning yangi tahrirdagi Ustavi loyihasi va konunchilikga muvofiq boshqa axborotlar kiradi.

9.19. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi majburiy bo'lgan qo'shimcha axborotning (materiallarning) ro'yxati qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan belgilanishi mumkin.

9.20. Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo'lib kamida 1 % (bir foiz)ga ega bo'lgan Jamiyat aksiyadorlari (aksiyadori), yil yakuni bo'yicha kuzatuv kengashi yig'ilishini o'tkazilishiga 10 (un) kun qolguncha aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi kun tartibiga masalalar kiritishga hamda jamiyat kuzatuv kengashi va jamiyat taftish komissiyasiga (taftishchiligiga) bu organning miqdor tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko'rsatishga haqli.

9.21. Aksiyadorlar (aksiyador) Jamiyat Kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga o'zlari ko'rsatgan nomzodlar ro'yxatiga aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay o'zgartishlar kiritishga haqli.

9.22. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining kun tartibiga masala uni qo'yish sabablari, masalani kiritayotgan aksiyadorlarning (aksiyadorning) ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatilgan holda yozma shaklda kiritiladi.

9.23. Jamiyat Kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga nomzodlar ko'rsatish to'g'risida takliflar kiritilganda, shu jumladan o'zini o'zi nomzod qilib ko'rsatilgan taqdirda nomzodning ismi-sharifi, unga tegishli aksiyalarning soni va turi (agar nomzod jamiyat aksiyadori bo'lsa), shuningdek nomzodni ko'rsatayotgan aksiyadorlarning ismi-sharifi (nomi), ularga tegishli aksiyalarning soni va turi ko'rsatiladi.

9.24. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tushgan takliflarni ko'rib chiqishi hamda 9.20 punktida belgilangan muddat tugaganidan so'ng 10 (o'n) kundan kechiktirmay ularni aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi kun tartibiga kiritish to'g'risida yoki mazkur kun tartibiga kiritishni rad etish haqida qaror qabul qilishi shart. Aksiyadorlar (aksiyador) tomonidan kiritilgan masala aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining kun tartibiga, xuddi shuningdek ko'rsatilgan nomzodlar Jamiyatning kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritilishi kerak, quyidagi hollar bundan mustasno:

- aksiyadorlar (aksiyador) 9.20 bandda belgilangan muddatga rioya qilmagan bo'lsa;
- aksiyadorlar (aksiyador) 9.20 bandda nazarda tutilgan miqdordagi jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;
- 9.22 bandda nazarda tutilgan ma'lumotlar to'liq bo'lmasa;
- takliflar qonunchilik talablariga muvofiq bo'lmasa.

9.25. Jamiyat Kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni jamiyat kuzatuv kengashi va taftish komissiyasiga (taftishchiligiga) saylov yuzasidan ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi dalil-isbotli qarori ana shu masalani kiritgan yoki taklif taqdim etgan aksiyadorga (aksiyadorlarga) qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uzog'i bilan 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

9.26. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishida qabul qilingan qaror hamda ovoz berish yakunlari qaror qabul qilingan kundan boshlab 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay aksiyadorlarga ma'lum qilinadi.

9.27. Aksiyador sababli ravishda yig'ilishida ishtirok etmagan yoki mazkur qaror qabul qilinishiga qarshi ovoz bergan xolatda aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi qarori yuzasidan shikoyat-e'tiroz bilan sudga murojat qilish huquqiga ega.

9.28. Jamiyat Kuzatuv kengashining masalani aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining kun tartibiga yoki nomzodni jamiyat Kuzatuv kengashiga va taftish komissiyasiga saylov bo'yicha ovoz berish uchun nomzodlar ro'yxatiga kiritishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

9.29. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishi Jamiyat Kuzatuv kengashining qaroriga ko'ra uning o'z tashabbusi asosida, taftish komissiyasining yozma talabi, shuningdek yozma talab taqdim etilgan sanada jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5% (besh foiziga) egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o'tkaziladi.

9.30. Jamiyat taftish komissiyasining yoki jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5% (besh foiziga) egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirish aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini o'tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e'tiboran 30 (o'ttiz) kundan kechiktirmay Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

9.31. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risidagi talabda yig'ilish kun tartibiga kiritilishi kerak bo'lgan masalalar ularni kiritish sabablari ko'rsatilgan holda ta'riflangan bo'lishi kerak.

9.32. Jamiyatning Kuzatuv kengashi jamiyat taftish komissiyasining yoki jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 % (besh foiz)ga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra chaqiriladigan aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishining kun tartibidagi masalalar matniga o'zgartishlar kiritishga haqli emas.

9.33. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadordan (aksiyadorlardan) chiqqan taqdirda, bu talabda Umumiy yig'ilishni chaqirishni talab qilayotgan aksiyadorning (aksiyadorlarning) ismi-sharifi (nomi), unga tegishli aksiyalarning soni, turi ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

9.34. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi talab aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilgan shaxs (shaxslar) tomonidan imzolanadi.

9.35. Jamiyatning taftish komissiyasi yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 % (besh foiz)ga egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida talab taqdim etgan sanadan e'tiboran 10 (o'n) kun ichida Jamiyat Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida yoki yig'ilishni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilishi kerak.

9.36. Jamiyat taftish komissiyasining yoki jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 % (besh foiz)ga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qaror quyidagi hollarda qabul qilinishi mumkin, agar:

- aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini chaqirishni talab qilayotgan aksiyador (aksiyadorlar) Konunda belgilangan miqdordagi jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining egasi bo'lmasa;

- kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masalalardan birortasi ham aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kirmasa;

- kun tartibiga kiritish uchun taklif etilgan masala qonunchilik talablariga muvofiq bo'lmasa.

9.37. Jamiyat Kuzatuv kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risidagi qarori yoki bunday yig'ilishni chaqirishni rad etish haqidagi asoslantirilgan qarori yig'ilish chaqirishni talab qilgan shaxslarga qaror qabul qilingan paytdan e'tiboran 3 (uch) ish kunidan kechiktirmay yuboriladi.

9.38. Jamiyat Kuzatuv kengashining aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirishni rad etish to'g'risidagi qarori ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

9.39. Jamiyat Kuzatuv kengashi qonunchilikda belgilangan muddat ichida aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilmagan taqdirda yoki uni chaqirishni rad etish haqida qaror qabul qilgan taqdirda, aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishi uni chaqirishni talab qilgan shaxslar tomonidan chaqirilishi mumkin. Bunday hollarda aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarning o'rni aksiyadorlar umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra jamiyatning mablag'lari hisobidan qoplanishi mumkin.

9.40. Agar Jamiyatning aksiyasi bir nechta shaxsning umumiy ulushli mulkida bo'lsa, aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ovoz berish vakolatlari ularning xohishiga ko'ra umumiy ulushli mulk ishtirokchilaridan biri yoki ularning umumiy vakili tomonidan amalga oshiriladi. Ko'rsatib o'tilgan har bir shaxsning vakolatlari tegishli tarzda rasmiylashtirilgan bo'lishi kerak.

9.41. Agar aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 50 % (ellik foiz)dan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi vakolatli (kvorunga ega) bo'ladi.

9.42. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazish uchun kvorum bo'lmasa, aksiyadorlarning takroriy Umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi e'lon qilinadi. Aksiyadorlarning takroriy Umumiy yig'ilishini o'tkazishda kun tartibini o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi.

9.43. Agar aksiyadorlarning o'tkazilmay qolgan yig'ilishi o'rniga chaqirilgan takroriy Umumiy yig'ilishida ishtirok etish uchun ro'yxatdan o'tkazish tugallangan paytda Jamiyatning joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalarining jami 40 % (qirq foiz)dan ko'proq ovoziga ega bo'lgan aksiyadorlar (ularning vakillari) ro'yxatdan o'tgan bo'lsa, aksiyadorlarning takroriy Umumiy yig'ilishi vakolatli bo'ladi.

9.44. Aksiyadorlarning takroriy Umumiy yig'ilishini o'tkazish to'g'risida xabar qilish Qonunda belgilangan muddatlarda va shaklda amalga oshiriladi.

9.45. Kvorum bo'lmaganligi sababli aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini o'tkazish sanasi 20 (yigirma) kundan kam muddatga ko'chirilgan taqdirda, Umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar o'tkazilmay qolgan Umumiy yig'ilishda ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlarning reestriga muvofiq aniqlanadi.

9.46. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida ovoz berish "Jamiyatning ovoz beruvchi bitta aksiyasi - bitta ovoz" prinsipi bo'yicha amalga oshiriladi, jamiyatning kuzatuv kengashi a'zolarini saylash bo'yicha kumulyativ ovoz berishni o'tkazish hollari bundan mustasno.

9.47. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining bayonnomasi aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi yopilganidan keyin o'n kundan kechiktirmay ikki nusxada tuziladi. Har ikkala nusxa ham Umumiy yig'ilishda raislik qiluvchi va Umumiy yig'ilish kotibi tomonidan imzolanadi.

9.48. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining bayonnomasida:

- aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkazilgan sana, vaqt va joy;
- Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning umumiy soni;
- Umumiy yig'ilishda ishtirok etgan aksiyadorlar ega bo'lgan ovozlarning soni;
- Umumiy yig'ilishning raisi (rayosati) va kotibi, yig'ilish kun tartibi ko'rsatiladi.

Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining bayonnomasida ma'ruzalarning asosiy qoidalari, ovozga qo'yilgan masalalar hamda ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari, yig'ilish qabul qilgan qarorlar ko'rsatilishi lozim.

9.49. Aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi O'zbekiston Respublikasining amaldagi Qonuniga, ushbu Ustavga va Jamiyat aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "«MAXSUSENERGOGAZ» AJning aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi to'g'risidagi Nizom"ga amal qiladi.

## **10 – MODDA**

### **KUZATUV KENGASHI VAKOLATLARI**

10.1. Jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, ushbu Qonun va jamiyat ustavi bilan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolat doirasiga kiritilgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

10.2. Jamiyat Kuzatuv kengashi amaldagi O'zbekiston Respublikasi Qonunida va Jamiyat Ustavida belgilangan tartibda aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan 3 (uch) yil muddatga saylanadigan besh (5) nafar a'zodan iborat.

10.3. Aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolariga ular o'z vazifalarini bajargan davr uchun Kuzatuv kengashi a'zolarining vazifalarini bajarishi bilan bog'lik rag'batlantiruvchi mukofot to'lanadi. Bunday mukofotlash miqdori aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qarori bilan belgilanadi.

10.4. Jamiyat Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

- Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar va Jamiyatning yillik biznes-rejasini kursatkichlarini ijrosi yuzasidan Jamiyat ijroiya organining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Jamiyat faoliyatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash;

- amaldagi konunlarda belgilangan korporativ boshqaruv normalariga rioya qilinaetganligi, shu jumladan Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida har yili xisobot berish;

- aksiyadorlarning yillik va navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishlarini chaqirish, bundan Qonunda tutilgan hollar mustasno;

- aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining kun tartibini tayyorlash;

- aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sana, vaqt va joyini belgilash;

- aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun Jamiyat aksiyadorlarining reestrini shakllantirish sanasini belgilash;

- Qonunda nazarda tutilgan masalalarni aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun kiritish;

- mol-mulkning bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

- Jamiyatning ijroiya organini tuzish, uning rahbarini va Jamiyat Boshkaruvi a'zolarini saylash (tayinlash), rahbarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish. Jamiyat Raisi yoki boshqaruv a'zolarini tayinlash to'g'risidagi qaror, odatda, xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida qabul qilinadi;

- Jamiyatning yillik biznes-rejasini tasdiqlash. Bunda Jamiyatning kelgusi yilga mo'ljallangan biznes-rejasi Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisida joriy yilning 1 dekabridan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;

- Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan 10 (o'n) kundan kechiktirmay ma'qullanishi lozim;

• ichki audit xizmatini tashkil etish va uning xodimlarini tayinlash, shuningdek har chorakda uning hisobotlarini eshitib borish;

• Jamiyat ijroiya organining faoliyatiga daxldor har qanday hujjatlardan erkin foydalanish va Jamiyat Kuzatuv kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun bu hujjatlarni ijroiya organidan olish. Jamiyat Kuzatuv kengashi va uning a'zolari olingan hujjatlardan faqat xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

• auditorlik tekshiruvini o'tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to'g'risida qaror qabul qilish;

• Jamiyatning taftish komissiyasi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensasiyalarning miqdorlari yuzasidan tavsiyalar berish;

• dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibi yuzasidan tavsiyalar berish;

• Jamiyatning zaxira fondidan va boshqa fondlaridan foydalanish;

• Jamiyatning filiallarini tashkil etish va vakolatxonalarini ochish;

• Jamiyatning sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlarini tashkil etish;

• balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish (shu jumladan qarz, kredit, garov, kafillik) to'g'risida qaror qabul qilinayotgan sanada jamiyat sof aktivlari miqdorining 15 % (o'n besh foiz)dan 50 % (ellik foiz)gacha tashkil etuvchi mol-mulk xususida bitim tuzish to'g'risidagi qarorni Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilish, bunda Kuzatuv kengashidan chiqib ketgan a'zolarning ovozi inobatga olinmaydi;

• yirik bitim tuzish masalasi bo'yicha Jamiyat Kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda, yirik bitim to'g'risidagi masala aksiyadorlar Umumiy yig'ilishiga hal qilishi uchun olib chiqiladi;

• affillangan shaxs bilan tuziladigan bitim to'g'risidagi axborotni o'rganish va affillangan shaxsning yozma bildirishi jamiyatga kelib tushgan sanadan e'tiboran 15 (o'n besh) kundan kechiktirmay bitim bo'yicha qaror qabul qilish. Affillangan shaxs bilan tuzilayotgan bitimni ma'qullash haqidagi qaror majlisda ishtirok etayotgan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilish;

• Jamiyatning tijorat va notijorat tashkilotlardagi ishtiroki bilan bog'liq bitimlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzish;

• Jamiyatning Ustav fondini ko'paytirish masalalarini, shuningdek Jamiyat Ustaviga jamiyatning ustav fondini ko'paytirish hamda jamiyatning e'lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog'liq o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi masalalarni bir ovozdan qabul qilish;

• Qonun hujjatlariga muvofiq aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog'ozlarning tashkiliy savdosiga qo'yish) narxini belgilash;

• Jamiyat tomonidan aksiyalar, korporativ obligasiyalar, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligasiyalar chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish;

• qimmatli qog'ozlar emissiya risolasini va aksiyalar chiqarilishi to'g'risida qarorlarini tasdiqlash;

• Jamiyatning korporativ obligasiyalarini qaytarib sotib olish to'g'risida qaror qabul qilish;

• ijroiya organiga to'lanadigan haq va kompensasiyalarning miqdorlarini belgilash;

• amaldagi qonun hujjatlari hamda Jamiyat Ustaviga asosan Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatiga kirgan boshqa masalalari hal etish.

Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatiga kirgan masalalar Jamiyat ijroiya organiga xal qilish uchun berilishi mumkin emas.

10.5. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylangan shaxslar cheklanmagan tarzda qayta saylanishi mumkin.

10.6. Jamiyat Raisi va Boshqaruv a'zolari Jamiyatning Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas. Ayni shu jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlayotgan shaxslar Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zosi bo'lishi mumkin emas.

10.7. Jamiyatning Kuzatuv kengashi tarkibiga saylanadigan shaxslarga nisbatan qo'yiladigan talablar Jamiyat Ustavida yoki aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan qarorda belgilab qo'yilishi mumkin.

10.8. Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zolari saylovi kumulyativ ovoz berish orqali amalga oshiriladi. Kumulyativ ovoz berishda har bir aksiyadorga tegishli ovozlar soni Jamiyatning Kuzatuv kengashiga saylanishi lozim bo'lgan shaxslar soniga ko'paytiriladi va aksiyador shu tariqa olingan ovozlarni bitta nomzodga to'liq berishga yoki ikki va undan ortiq nomzodlar o'rtasida taqsimlashga haqli.

10.9. Eng ko'p ovoz to'plagan nomzodlar Jamiyat Kuzatuv kengashining tarkibiga saylangan deb hisoblanadi.

10.10. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan, ushbu kengash tarkibidan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan saylanadi.

10.11. Jamiyatning Kuzatuv kengashi o'z raisini Kuzatuv kengashi a'zolarining umumiy soniga nisbatan ko'pchilik ovoz bilan qayta saylashga haqli.

10.12. Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi uning ishini tashkil etadi, Kuzatuv kengashi yig'ilishlarini chaqiradi va ularda raislik qiladi, yig'ilishda bayonnoma yuritilishini tashkil etadi, aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida raislik qiladi.

10.13. Jamiyat kuzatuv kengashining raisi bo'lmagan taqdirda uning vazifasini kuzatuv kengashining a'zolaridan biri amalga oshiradi.

10.14. Jamiyat Kuzatuv kengashining yig'ilishi Kuzatuv kengashi raisi tomonidan uning o'z tashabbusiga ko'ra, Jamiyat Kuzatuv kengashi, Taftish komissiyasi, ijroiya organi a'zosining, shuningdek Jamiyat Ustavida belgilangan boshqa shaxslarning talabiga ko'ra chaqiriladi. Jamiyat Kuzatuv kengashining yig'ilishini chaqirish va o'tkazish tartibi Jamiyatning Ustavida belgilab qo'yiladi.

10.15. Jamiyat Kuzatuv kengashining yig'ilishini o'tkazish uchun kворum Jamiyat Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining 75 % (etmish besh foiz)dan kam bo'lmasligi kerak. Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining soni Jamiyat Ustavida nazarda tutilgan miqdorning 75 % (etmish besh foiz)dan kam bo'lgan taqdirda, Jamiyat Kuzatuv kengashining yangi tarkibini saylash uchun aksiyadorlarning navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirishi shart. Kuzatuv kengashining qolgan a'zolari aksiyadorlarning bunday navbatdan tashqari Umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilishga, shuningdek Jamiyat ijroiya organi rahbarining vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, uning vazifasini vaqtincha bajaruvchini tayinlashga haqlidir.

10.16. Jamiyat Kuzatuv kengashining yig'ilishida qarorlar, agar Kuzatuv kengashining yig'ilishini chaqirish va o'tkazish tartibini belgilovchi Qonunda, Jamiyat Ustavida o'zgacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, yig'ilishida hozir bo'lganlarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Jamiyat Kuzatuv kengashining yig'ilishida masalalar hal etilayotganda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bitta ovozga ega bo'ladi.

10.17. Jamiyat Kuzatuv kengashining bir a'zosi o'z ovozini Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berishiga yo'l qo'yilmaydi.

10.18. Jamiyat Ustavida jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda jamiyat Kuzatuv kengashi raisining hal qiluvchi ovoz huquqi nazarda tutilishi mumkin.

10.19. Jamiyat Kuzatuv kengashining yig'ilishida bayonnomasi yuritiladi. Kuzatuv kengashi yig'ilishining bayonnomasi yig'ilish o'tkazilganidan so'ng 10 (un) kundan kechiktirmay tuziladi. Yig'ilish baennomasida quyidagilar ko'rsatiladi:

- uning o'tkazilgan sanasi, vaqti va joyi;
- yig'ilishda ishtirok etuvchi shaxslar, shu jumladan masofadan turib axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda;
- yig'ilish kun tartibi;
- ovoz berishga qo'yilgan masalalar, ular yuzasidan o'tkazilgan ovoz berish yakunlari;
- qabul qilingan qarorlar.

10.20. Jamiyat Kuzatuv kengashi yig'ilishining bayonnomasi yig'ilishda ishtiroq etgan Kuzatuv kengashi a'zolari tomonidan imzolaniadi, ular bayonnomaning to'g'ri rasmiylashtirilishi uchun javob bo'ladi.

10.21. Jamiyat Kuzatuv kengashining qarorlari sirdan ovoz berish yo'li bilan (so'rov yo'li bilan) Jamiyat Kuzatuv kengashining barcha a'zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinishi mumkin. Jamiyat Kuzatuv kengashi majlisining bayonnomasi imzolangan kuni Jamiyatning ijroiya organiga ijro

etish uchun topshiriladi. Kuzatuv kengashi aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishini chaqirish to'g'risida qaror qabul qilgan taqdirda mazkur qaror haqidagi axborot Jamiyatning ijroiya organiga Kuzatuv kengashining majlisi o'tkaziladigan kuni topshiriladi.

10.22. O'z faoliyatida Kuzatuv kengashi O'zbekiston Respublikasi amaldagi Qonunga, ushbu Ustavga va Jamiyatning aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangan "«MAXSUSENERGOGAZ» AJning Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizom"ga amal qiladi.

## **11 – MODDA**

### **JAMIYATNING TAFTISH KOMISSIYASI**

11.1. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati nazorat qilish uchun ushbu Jamiyat Ustaviga muvofiq aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan tarkibida 3 (uch)ta a'zodan iborat, 1 (bir) yil muddatga Taftish komissiyasi saylanadi.

11.2. Jamiyat Taftish komissiyasi a'zolariga doir malaka talablari aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan belgilanadi. Ayni bir shaxs ayni bir Jamiyatning Taftish komissiyasi tarkibiga ketma-ket 3 (uch) martadan ortiq saylanishi mumkin emas.

11.3. Jamiyat Taftish komissiyasining vakolatlari Qonun va ushbu Jamiyat Ustavi bilan belgilanadi. Jamiyat Taftish komissiyasi faoliyat tartibi aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan "«MAXSUSENERGOGAZ» AJning Taftish komissiyasi to'g'risidagi Nizomda" belgilab qo'yiladi.

11.4. Jamiyat Taftish komissiyasining yozma talabiga ko'ra Jamiyat ijroiya organida mansabni egallab turgan shaxslar jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyati to'g'risidagi hujjatlarni Taftish komissiyasiga taqdim etishi shart.

11.5. Jamiyat Taftish komissiyasining a'zolari bir vaqtning o'zida Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zosi bo'lishi, shuningdek ayni shu jamiyatda mehnat shartnomasi (kontrakt) bo'yicha ishlashi mumkin emas.

11.6. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish Taftish komissiyasining, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining, Jamiyat Kuzatuv kengashining tashabbusiga ko'ra yoki Jamiyat ovoz beruvchi aksiyalarining kamida 5 % (besh foiz)ga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) talabiga ko'ra Jamiyat Kuzatuv kengashini oldindan xabardor qilish yo'li bilan bir yillik yoki boshqa davr ichidagi faoliyat yakunlari bo'yicha amalga oshiriladi.

11.7. Jamiyatning moliya-xo'jalik faoliyatini tekshirish yakunlariga ko'ra Jamiyatning Taftish komissiyasi xulosa tuzadi, bu xulosada:

- Jamiyatning hisobotlarida va boshqa moliyaviy hujjatlarida ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligiga doir baho;
- buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni taqdim etish tartibi buzilganligi, shuningdek moliya-xo'jalik faoliyati amalga oshirilayotganda qonun hujjatlari buzilganligi faktlari to'g'risidagi axborot ko'rsatilishi shart.

11.8. Taftish komissiyasi Jamiyatda affillangan shaxslar bilan tuzilgan bitimlar yoki yirik bitimlar mavjudligi, shuningdek qonun hujjatlarining va Jamiyat ichki hujjatlarining bunday bitimlarni tuzishga doir talablariga rioya qilinishi to'g'risidagi xulosani har chorakda Jamiyat Kuzatuv kengashining majlisiga olib chiqadi. Ushbu moddaning 11.7 bandida ko'rsatilgan axborotni o'z ichiga olgan xulosa aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishida eshutiladi.

## **12 – MODDA**

### **JAMIYATNING IJROIYA ORGANI VA UNING VAKOLATLARI**

12.1. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik Boshqaruv tomonidan amalga oshiriladi. Jamiyat Boshqaruvi 5 (besh) kishidan iborat: Boshqaruv Raisi, Boshqaruv Raisining birinchi o'rinbosari, Boshqaruv Raisining ishlab chikarish bo'yicha o'rinbosari-bosh muhandis, Boshqaruv Raisining iqtisodiyot va moliya bo'yicha o'rinbosari, bosh hisobchi.

12.2. Boshqaruv Raisi Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritishga, shu jumladan boshqa tashkilotlar va organlar bilan o'zaro munosabatlarda uning manfaatlarini himoya qilishga haqlidir.

12.3. Jamiyat Boshkaruvi vakolatiga Jamiyatning joriy faoliyatini boshqarishning barcha masalalari kiradi, bundan tashqari, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi yoki Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatiga kiradigan masalalar bundan mustasno, shu jumladan:



### 12.3.1. Boshqaruv Raisi xaqli va majbur:

- har yili aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishida yillik hisobot va Jamiyatning rivojlanish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar to'g'risida hisobot berish;
- xar chorakda Jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar va Jamiyat yillik biznes rejasi ko'rsatkichlarini bajarish borasidagi ishlar to'g'risida Kuzatuv Kengashiga xisobot berish;
- yillik biznes-reja parametrlarining bajarilishini va ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan miqdorda foyda olishni, shuningdek aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lashni ta'minlash;
- aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi yoki Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatiga kiradigan bitimlar bundan mustasno, Jamiyat nomidan bitimlar tuzish;
- moliyaviy hujjatlarni bir o'zi hal qilish va imzolash;
- o'z vakolatlari va majburiyatlarini o'zining o'rinbosarlari orasida taqsimlab berish;
- Jamiyatning Ustavida yoki boshqa hujjatlarida belgilangandek, mol-mulk va pul mablaglarini boshqarish;
- Jamiyat nomidan yozishmalar olib borish;
- barcha turdagi soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblashning to'g'riligini nazorat qilish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish bo'yicha ishlarni olib borish;
- shartnomalar va kontraktlarni, shu jumladan mexnat va ishlab chiqaruvchi shartnomalarni, tuzish va bekor qilish;
- Jamiyatning shartnomaviy majburiyatlarini bajarilishini ta'minlash;
- Jamiyat nomidan ishonchnomalar berish;
- banklarda hisob raqami va boshqa turdagi hisob raqamlari ochish;
- Jamiyat xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq chiqarish va ko'rsatmalar berish;
- Jamiyat xodimlarini ish haqi va aksiyadorlarni dividendi bilan belgilangan vaqtda, qonunda ko'rsatilgan davrda ta'minlash;
- Jamiyatning barcha lokal hujjatlarini tasdiqlash;
- Jamiyatning ma'muriy boshqaruv xodimlarining shtatlar jadvalini, shuningdek Jamiyatning shtatlar jadvalini, tasdiqlash;
- Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlari va mehnat muhofazasiga rioya etilishini ta'minlash;
- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

### 12.3.2. Boshqaruv Raisining Birinchi o'rinbosari xaqli va majbur:

- ishonchnomasiz Jamiyat nomidan ish yuritish va boshqa tashkilot va organlar bilan munosabatlarda uning manfaatlarini himoya qilish;
- shartnomalar va kontraktlar, shu jumladan mexnat va ishlab chiqarish shartnomalarini, tuzish va bekor qilish;
- Jamiyat barcha xodimlari tomonidan bajarilishi majburiy bo'lgan buyruq chiqarish va ko'rsatmalar berish;
- Jamiyatning shartnomaviy majburiyatlarini bajarilishini ta'minlash;
- Jamiyatning Ustavida yoki boshqa hujjatlarida belgilangandek, mol-mulk va pul mablaglarini boshqarish;
- moliyaviy va boshqa hujjatlarini bir o'zi hal qilish va imzolash;
- Jamiyat nomidan bitimlar tuzish, aksiyadorlar Umumiy yig'ilishi yoki Jamiyat Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi bitimlar bundan mustasno;
- Jamiyat nomidan yozishmalar olib borish;
- Jamiyat nomidan ishonchnomalar berish;
- banklarda hisob raqami va boshqa turdagi hisob raqamlari ochish;
- Jamiyatning ma'muriy boshqaruv xodimlarining shtatlar jadvalini, shuningdek Jamiyatning shtatlar jadvalini tasdiqlash;
- Jamiyatning barcha lokal hujjatlarini tasdiqlash;

- ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun zarur miqdorda foyda olinishini ta'minlashni, hamda aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lanishini nazorat qilish;

- Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlari va mehnat muhofazasiga rioya etilishini ta'minlash;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

12.3.3. Boshqaruv Raisining ishlab chikarish bo'yicha o'rinbosari-bosh muhandis xaqli va majbur:

- Jamiyat nomidan ishlab chiqarish buyicha ish yuritish, boshqa tashqilotlar va organlar bilan o'zaro munosabatlarda uning manfaatlarini himoya qilish;

- ishlab chiqarish shartnoma va kontraktlar tuzish;

- Jamiyat barcha xodimlariga ijro uchun majburiy bo'lgan ishlab chiqarish bo'yicha ko'rsatmalar berish;

- Jamiyatning shartnomaviy majburiyatlarini va yillik biznes-rejani bajarishini ta'minlash;

- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarning oldini olish bo'yicha ishlarni tashkil etish;

- Jamiyat xodimlari tomonidan mehnatni muhofaza qilish va texnika havfsizlik choralari ga rioya etilishini ta'minlash;

- Jamiyat nomidan yozishmalar olib borish;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

12.3.4. Boshqaruv Raisi iqtisodiyot va moliya bo'yicha o'rinbosari xaqli va majbur:

- Jamiyatning Ustavida yoki boshqa hujjatlarida belgilangandek, mol-mulk va pul mablaglarini boshqarish;

- moliyaviy va boshqa hujjatlarni imzolash;

- Jamiyat nomidan yozishmalar olib borish;

- Jamiyat nomidan ishonchnomalar berish;

- Jamiyat barcha xodimlariga ijro uchun majburiy bo'lgan buyruq va ko'rsatmalar berish;

- ishlab chiqarish shartnomalari va MTR va xizmatlarini sotish va sotib olish bo'yicha kontraktlar tuzish;

- yillik biznes-reja parametrlarining bajarilishini va ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan miqdorda foyda olishni, shuningdek aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lashni ta'minlash;

- qonun hujjatlarida belgilangan muddat ichida Jamiyat xodimlarini ish haqi va aksiyadorlar uchun dividendlar bilan o'z vaqtida ta'minlash;

- barcha turdagi soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblashning to'g'riligini nazorat qilish;

- debitor va kreditor qarzdorligini qisqartirish bo'yicha ish olib borish;

- Jamiyat xodimlarining ijtimoiy kafolatlari rioya etilishini ta'minlash;

- qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin

12.3.5. Bosh hisobchi xaqli va majbur:

- Jamiyat nomidan moliyaviy masalalar buyicha ish yuritish, boshqa tashqilot va organlar bilan o'zaro munosabatlarda uning manfaatlarini himoya qilish;

- Jamiyat Ustavi yoki boshqa hujjatlarda ko'rsatilgandek, mol-mulk va pul mablaglarini boshqarish;

- moliyaviy hujjatlarini imzolash;

- ishonchnomalar berish;

- banklarda hisob raqami va boshka turdagi hisob raqamlari ochish;

- barcha unga bo'ysinadigan xodimlariga ijro uchun majburiy bo'lgan ko'rsatmalar berish;

- Jamiyat nomidan moliyaviy va buxgalterlik yozishmalar olib borish;

- komandirovka va boshqa buxgalterlik va moliyaviy hujjatlarni imzolash;

- yillik biznes-reja parametrlarining bajarilishini va ishlab chiqarish va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun zarur bo'lgan miqdorda foyda olishni, shuningdek aksiyalar bo'yicha dividendlarni to'lashni ta'minlash;

- qonun hujjatlarida belgilangan muddat ichida Jamiyat xodimlarini ish haqi va aksiyadorlarni dividendlar bilan o'z vaqtida ta'minlash;

- barcha turdagi soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblashning to'g'riligini nazorat qilish;
- debitor va kreditor qarzdorligini qisqartirish bo'yicha ish olib borish;
- Jamiyatning buxgalterlik hisobi va hisobotini tegishli holati va ishonchliligini, yillik hisobotni va boshqa moliyaviy hisobotlarni tegishli organlarga, shuningdek aksiyadorlarga, kreditorlarga va boshqa Jamiyat faoliyati haqida ma'lumot oluvchilarga o'z vaqtida taqdim etilishini ta'minlash.

12.4. Jamiyat boshqaruvi a'zolarining aniq huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi Qonun va boshqa qonun hujjatlarida, ushbu Ustavda, ularning har biri bilan Jamiyat bilan 3 (uch) yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to'g'risida har yili qaror qabul qilinadi, hamda "«MAXSUSENERGOGAZ» AJ Boshqaruvi to'g'risidagi Nizomiga" muvofiq belgilanadi. Shartnoma Jamiyat nomidan Jamiyat Kuzatuv kengashining raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs tomonidan imzolanadi.

12.5. Jamiyat Boshqaruvi Jamiyatning Ustavi asosida harakat qiladi.

12.6. Jamiyat Boshqaruvi aksiyadorlar Umumiy yigilishi va Jamiyat Kuzatuv kengashi qarorlarining bajarilishini tashkil etadi.

12.7. Jamiyat boshqaruvini tashkil etish va muddatdan ilgari vakolatini to'xtatish Kuzatuv kengashi qarori bilan amalga oshadi.

12.8. Jamiyat Kuzatuv kengashi karoriga asosan Rais va Boshqaruv a'zolarini tayinlash, xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan xolda, tanlov asosida qabul qilinadi.

12.9. Boshqaruv yig'ilishida bayonnoma olib boriladi. Jamiyat Boshqaruvi yig'ilishi bayonnomasi Kuzatuv kengashi a'zolariga va taftish xay'atiga ularning talabiga ko'ra taqdim etiladi.

12.10. Jamiyatning boshqaruvi majlislarini o'tkazishni Boshqaruv Raisi tashkil etadi, u Jamiyat nomidan barcha hujjatlarni hamda Jamiyat boshqaruvi majlisi bayonnomalarini imzolaydi, Jamiyatning boshqaruvi o'z vakolat doirasida qabul qilgan qarorlarga muvofiq Jamiyat nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi.

12.11. Jamiyat Kuzatuv kengashining a'zolari, Jamiyat Boshqaruvi a'zolari o'z huquqlarini amalga oshirishda va o'z majburiyatlarini bajarishda Jamiyatning manfaatlarini ko'zlab ish tutishi hamda belgilangan tartibda javobgar bo'lishi lozim.

12.12. Agar ushbu modda qoidalariga muvofiq bir nechta shaxs javobgar bo'lsa, ularning Jamiyat oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo'ladi.

12.13. Jamiyatga zarar etkazilishiga sabab bo'lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Jamiyat Kuzatuv kengashi a'zolari, Boshqaruv a'zolari javobgar bo'lmaydi.

12.14. Jamiyat yoki u joylashtirgan aksiyalarning hammasi bo'lib kamida 1 % (bir foiz) egalik qiluvchi aksiyador (aksiyadorlar) Jamiyatga etkazilgan zararlarining o'rnini qoplash to'g'risidagi da'vo bilan Jamiyatning Kuzatuv kengashi a'zosi, Boshqaruv a'zosi ustidan sudga murojaat qilishga haqli.

### 13 - MODDA

#### **FILIALLAR, VAKOLATXONALAR, SHU'BA VA TOBE JAMIYATLAR VA KORXONALARNI TASHKIL ETISH VA FAOLIYAT YURITISH TARTIBI**

13.1. Jamiyat jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangan nizom asosida ish yuritadigan, yuridik shaxs bo'lmagan filiallar tashkil etishga va vakolatxonalar ochishga haqli. Jamiyatning filialga va vakolatxonaga berib qo'yilgan mol-mulki jamiyatning balansida hisobga olinadi.

13.2. Filial yoki vakolatxonaning rahbari jamiyat tomonidan tayinlanadi va jamiyat tomonidan berilgan ishonchnoma asosida ish yuritadi.

13.3. Jamiyat tomonidan O'zbekiston Respublikasidan tashqarida filiallar tashkil etish va vakolatxonalar ochish, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, filiallar va vakolatxonalar joylashgan erdagi mamlakatning qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

13.4. Jamiyat aksiyadorlik jamiyati yoki mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi sho'ba va tobe xo'jalik jamiyatlariga ega bo'lishi mumkin. Sho'ba xo'jalik jamiyati o'zining asosiy jamiyati majburiyatlari yuzasidan javobgar bo'lmaydi.

13.5. Sho'ba xo'jalik jamiyatiga majburiy ko'rsatmalar berish huquqiga ega bo'lgan asosiy jamiyat bunday ko'rsatmalarni bajarish uchun sho'ba xo'jalik jamiyati tomonidan tuzilgan bitimlar yuzasidan sho'ba xo'jalik jamiyati bilan solidar javobgar bo'ladi. Asosiy jamiyatning sho'ba xo'jalik jamiyatiga majburiy ko'rsatmalar berish huquqi faqat sho'ba xo'jalik jamiyati bilan tuzilgan shartnomada yoki sho'ba xo'jalik jamiyatining ustavida nazarda tutilgan taqdirda asosiy jamiyat bunday huquqqa ega deb hisoblanadi.

13.6. Sho'ba xo'jalik jamiyati asosiy jamiyatning aybi bilan bankrot bo'lgan taqdirda asosiy Jamiyat sho'ba xo'jalik jamiyatining majburiyatlari yuzasidan subsidiar javobgar bo'ladi.

13.7. Asosiy jamiyat sho'ba xo'jalik jamiyati tomonidan muayyan harakatlar amalga oshirilishi oqibatida uning bankrot bo'lib qolishini oldindan bila turib, shunday harakatlarni amalga oshirishi uchun sho'ba xo'jalik jamiyatiga majburiy ko'rsatma bergan va (yoki) sho'ba xo'jalik jamiyatining imkoniyatidan foydalangan holdagina sho'ba xo'jalik jamiyatining bankrotligi asosiy jamiyatning aybi bilan yuz bergan deb hisoblanadi.

13.8. Sho'ba xo'jalik jamiyatining aksiyadorlari (ishtirokchilari) asosiy jamiyatdan uning aybi bilan sho'ba xo'jalik jamiyatiga etkazilgan zararining o'rni qoplanishini talab qilishga haqli. Asosiy Jamiyat sho'ba xo'jalik jamiyati tomonidan muayyan harakatlar amalga oshirilishi oqibatida uning zarar ko'rishini oldindan bila turib, o'z huquqlari va (yoki) imkoniyatidan sho'ba xo'jalik jamiyatining shunday harakatlarni amalga oshirishi maqsadida foydalangan holdagina zarar asosiy jamiyatning aybi bilan etkazilgan deb hisoblanadi.

13.9. Agar boshqa ishtirok etuvchi jamiyat xo'jalik jamiyatining ovoz beruvchi aksiyalarining 20 % (yigirma foiz)dan ortig'iga ega bo'lsa, xo'jalik jamiyati tobe deb e'tirof etiladi.

#### **14 – MODDA**

##### **YILLIK XISOBOTLARNI TUZISH, TEKSHIRISH VA TASDIQLASH TARTIBI**

14.1. Jamiyat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda buxgalteriya hisobini yuritishi va moliyaviy hisobot taqdim etishi shart.

14.2. Jamiyatda buxgalteriya hisobining tashkil etilish, holati va ishonchligi, tegishli organlarga har yilgi hisobot va boshqa moliyaviy hisobotlar, shuningdek jamiyatning rasmiy veb-saytida va ommaviy axborot vositalarida aksiyadorlarga, kreditorlarga taqdim etiladigan jamiyat faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilishi uchun javobgarlik Jamiyat ijroiya organining zimmasida bo'ladi.

14.3. Jamiyatning moliyaviy hisobotida ko'rsatilgan va aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishiga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotdagi, buxgalteriya balansidagi, foyda va zararlar hisobvarag'idagi ma'lumotlarning ishonchligi mulkiy manfaatlari jamiyat yoki uning aksiyadorlari bilan bog'liq bo'lmagan auditorlik tashkiloti tomonidan tasdiqlangan bo'lishi kerak.

14.4. Jamiyatning yillik hisoboti aksiyadorlarning yillik Umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan 10 (o'n) kundan kechiktirmay Jamiyatning Kuzatuv kengashi tomonidan dastlabki tarzda tasdiqlanishi lozim.

14.5. Jamiyat Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy hisobotni u Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o'tkazilganidan keyin, aksiyadorlarning yillik umumiy yig'ilishi o'tkaziladigan sanadan kamida 2 (ikki) hafta oldin e'lon qilishi shart.

#### **15-MODDA**

##### **JAMIYATNI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH TARTIBI**

15.1. Jamiyat quyidagi hollarda tugatilishi mumkin:

- aksiyadorlar Umumiy yig'ilishning qaroriga binoan;
- sudning qaroriga binoan;
- Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa asoslarga binoan.

15.2. Jamiyat ixtiyoriy ravishda tugatilgan taqdirda, tugatilayotgan jamiyatning Kuzatuv kengashi jamiyatni tugatish va tugatish komissiyasini tayinlash to'g'risidagi masalani aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi hal qilishi uchun olib chiqadi. Ixtiyoriy ravishda tugatilayotgan jamiyat aksiyadorlarining umumiy yig'ilishi jamiyatni tugatish va tugatuvchini tayinlash haqida qaror qabul qiladi.

15.3. Jamiyat sudning qaroriga ko'ra tugatilayotganda tugatish komissiyasini tayinlash qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tugatish komissiyasi tayinlangan paytdan e'tiboran jamiyat ishlarini boshqarish bo'yicha barcha vakolatlar unga o'tadi. Tugatish komissiyasi tugatilayotgan jamiyat nomidan sudda ishtirok etadi.

15.4. Tugatish komissiyasi jamiyatning tugatilishi haqida, shuningdek uning kreditorlari tomonidan talablarni bayon etish tartibi va muddatlari to'g'risida qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ommaviy axborot vositalarida e'lon beradi. Kreditorlar tomonidan talablar taqdim etish uchun muddat jamiyatning tugatilishi to'g'risidagi xabar e'lon qilingan sanadan e'tiboran ikki oydan kam bo'lmasligi lozim.

Agar tugatish to'g'risida qaror qabul qilingan paytga kelib jamiyat kreditorlar oldida majburiyatlarga ega bo'lmasa, uning mol-mulki Qonun hujjatlariga muvofiq aksiyadorlar o'rtasida taqsimlanadi.

15.5. Tugatish komissiyasi kreditorlarni aniqlash va debitorlik qarzlarini olish chora-tadbirlarini ko'radi, shuningdek kreditorlarni jamiyatning tugatilishi to'g'risida yozma shaklda xabardor qiladi.

15.6. Kreditorlarning talablar qo'yishi uchun belgilangan muddat tugaganidan keyin tugatish komissiyasi oraliq tugatish balansini tuzadi, mazkur balansda tugatilayotgan jamiyat mol-mulking tarkibi, kreditorlar tomonidan taqdim etilgan talablar, shuningdek ularni ko'rib chiqish natijalari haqidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi. Oraliq tugatish balansini tugatilayotgan Jamiyat aksiyadorlarining Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

15.7. Agar tugatilayotgan jamiyatdagi mavjud pul mablag'lari kreditorlarning talablarini qanoatlantirish uchun etarli bo'lmasa, tugatish komissiyasi Jamiyatning mol-mulkini sud qarorlarini ijro etish uchun belgilangan tartibda kimoshdi savdosida sotishni amalga oshiradi.

Tugatilayotgan Jamiyat kreditorlariga pul summalarini to'lash tugatish komissiyasi tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan navbat tartibida oraliq tugatish balansiga muvofiq, ushbu balans tasdiqlangan kundan boshlab amalga oshiriladi.

15.8. Kreditorlar bilan hisob-kitoblar tugaganidan keyin tugatish komissiyasi tugatish balansini tuzadi, tugatish balansini tugatilayotgan Jamiyat aksiyadorlarning Umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadi.

Tugatish komissiyasi ushbu moddada nazarda tutilgan tartib-taomillar tugallanganidan keyin jamiyat qimmatli qog'ozlari chiqarilishlarining davlat ro'yxatidan o'tkazilganligini bekor qilish yuzasidan zarur tadbirlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiradi.

15.9. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ yuridik shaxslarning yagona davlat reestriga tegishli yozuvni kiritgan paytdan e'tiboran jamiyatni tugatish tamomlangan, jamiyat esa faoliyatini tugatgan deb hisoblanadi.

15.10. Jamiyatni qayta tashkil etish aksiyadorlar Umumiy yig'ilishining qaroriga ko'ra qo'shib yuborish, qo'shib olish, bo'lish, ajratib chiqarish va o'zgartirish shaklida amalga oshiriladi.

## 16 - MODDA NIZOLARNI XAL QILISH

16.1. Aksiyadorlik Jamiyatning tashkil etilishi, faoliyati, qayta tashkil etilishi va tugatilishi, shuningdek aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish sohasidagi nizolar Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

**"MAXSUSENERGOGAZ AJ**  
**Boshqaruv Raisi**  
**Xakberdiev Dilshod Murodovich**

